

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

MAGISTRATURA BO‘LIMI

Qo‘lyozma huquqida

UDK- 626.886

Xadjayeva Zarina Faxriddin qizi

«Devxona ko‘li zooplanktonlarini aniqlash va baliqchilikda qo‘llash»

Mutaxassislik: 5A140103- Ixtiologiya va gidrobiologiya

Magistr akademik darajasini olishi uchun yozilgan

DISSERTATSIYASI

Ilmiy rahbar: _____ B.B.Toxirov
(imzo) b.f.n., dotsent

BUXORO – 2019

Dissertatsiya Buxoro davlat universiteti Tabiiy fanlar fakol'teti

“Biologiya” kafedrasida bajarilgan

Ilmiy rahbar:	_____	_____
	(imzo)	(Ilmiy darajasi va unvoni, ism-sharifi)

Rasmiy opponent:	_____	_____
	(imzo)	(Ilmiy darajasi va unvoni, ism-sharifi)

Kafedra mudiri:	_____	_____
	(imzo)	(Ilmiy darajasi va unvoni, ism-sharifi)

Magistratura bo'limi boshlig'i:	_____	_____
	(imzo)	(Ilmiy darajasi va unvoni, ism-sharifi)

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

MAGISTRATURA BO‘LIMI

“Himoyaga ruxsat etilsin”

Magistratura bo‘lim boshlig‘i _____A.A.To‘rayev

“ ” _____ 2019

Xadjayeva Zarina Faxriddin qizi

« Devxona ko‘li zooplanktonlarini aniqlash va baliqchilikda qo‘llash »

Mutaxassislik: 5A140103- Ixtiologiya va gidrobiologiya

Magistr akademik darajasin iolishi uchun yozilgan

DISSERTATSIYASI

Ilmiy rahbar: _____ B..B.Toxirov
(imzo) b.f.n., dotsent

BUXORO – 2019

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Fako’ltet: Tabiiy fanlar fako’lteti

Kafedra: Biologiya kafedrası

O‘quv yili: 2018-2019

Magistratura talabasi: Xadjayeva Zarina Faxriddin qizi

Ilmiy rahbar: b.f.n. dotsent B.B.Toxirov

Mutaxassisligi: 5A140103- Ixtiologiya va gidrobiologiya

Devxona ko’li zooplanktonlarini aniqlash va baliqchilikda qo’llash

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI ANNOTATSIYASI

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Tadqiqot ob’ekti: Buxoro viloyati Devxona ko’li plankton organizmlari (kolovratkalar, kopepodlar, kladotseralar) hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti: Zooplankton organizmlarning taksonomik taxlili, tarqalishi, turlari, hamda ularning sifat va miqdor jixatidan rivojlanish dinamikasi, ularni o’rganish uchun reja asosida tadqiqot olib borish, baliq chavoqlari tomonidan ozuqa ob’ekti sifatida istemol qilinishi.

Tadqiqotning maqsadi:

- Buxoro viloyati Devxona ko’lidagi zooplankton organizmlarning tur tarkibini, biomassasini, sifat va mahsuldorligini aniqlash, tur tarkibini taxlil qilish va dominant turlarni aniqlash;
- Gidrobiologik ilmiy-tadqiqot usullari bilan tanishish ;
- Zooplankton miqdori va biomassasining mavsumiy o’zgarishini baxolash;

- Zooplankton organizmlarni o'rganish orqali baliq chavoqlarining va baliqlarning mahsuldorligini oshirishga hissa qo'shish;

Tadqiqot vazifalari:

- Hidrobiologik tadqiqot usullari bilan tanishgan holda Devxona ko'lidan material yig'ish;
- Suv gidrobiontlarning yashash muxiti sifatida miqdor va sifat namunalarini yig'ish, ularni fiksatsiya qilish, laboratoriya sharoitida kameral qayta ishlash, total preparat tayyorlash;
- Zooplankton turlarni aniqlash;
- Zooplankton organizmlarning sifat va miqdor jixatidan mavsumiy rivojlanish dimakasini aniqlash;
- Ko'ldan tadqiqot ob'ekti sifatida foydalanish;
- Zooplankton organizmlardan baliqlarning tabiiy ozuqasi sifatida foydalanish va suv havzalari mahsuldorligini oshirish chora -tadbirlarini ishlab chiqish;

Tadqiqot usullari: Dissertatsiyada gidrologik, gidrobiologik, gidrokimyxo, ekologik, statistik tahlil usullaridan foydalanilgan. Dala sharoitida zooplankton namunalarini yig'ish, fiksatsiyalash, gidrobiologiya usullaridan foydalanildi

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- Devxona ko'lining gidrobiologiyasi birinchi marta o'rganilganligi, zooplankton turlarining birinchi marta turlar soni keltirilganligi, dominant turlar biologiyasi va ekologiyasi keltirilganligi,
- Zooplankton organizmlarning sifat va miqdor jixatidan rivojlanish dinamikasi hamda mavsumiy suksessiyasi aniqlangan va ularning suv ekotizimidagi ahamiyati o'rganilgan;
- Zooplankton organizmlarni tabiiy holda ko'paytirib, baliq chavoqlarini oziqlantirish evaziga ularning yashovchanligini oshirishi aniqlangan;

Magistratura talabasi:

Xadjayeva Zarina Faxriddin qizi

Ilmiy rahbar:

b.f.n. dotsent B.B.Toxirov

**MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIALIZED EDUCATION
OF THE REPUBLIC IN UZBEKISTAN**

BUKHARA STATE UNIVERSITY

Faculty: Faculty of natural sciences

Department: Biology

Academic years: 2018-2019

Student of MD level: Xadjayeva Zarina Faxriddin qizi

Scientific in supervisor: assistent docter B.B.Toxirov

Spiciality: 5A140103- Ixtiology va gidrobiology

**Determination of zooplankton of Devkhana Lake in Bukhara region and its
application in fisheries**

Relevance of the topic: According to the recommendation of the Ministry of health of the Republic, for the healthy development of the human body should consume 12 kg of fish products throughout the year. And to provide the population with fish, it is necessary to grow a high level of fish products. To ensure its morality with fish, it is necessary to use reservoirs, lakes, rivers and artificial reservoirs. To do this, it requires the study of the composition of the waters, as well as the level of their use, to be improved. It allows to conduct research on the water ecosystem system (phytoplankton, zooplankton, zoobentos and high water plants) and to study the that take place in the water ecosystem. The presence of components of the water ecosystem has a huge impact on the development of fish shells and adult fish. Fish breeding in the main fisheries-oriented lakes of Uzbekistan is not fully established. The main nutrient of hydrobions that can be encountered in lakes, the comprehensive study of hydrobions will help to be a solution to many difficulties in the cultivation of fish.

Object of the research: Devkhana Lake of Bukhara region is the organisms of plankton (colovrates, copepods, cladoceres).

Subject of the research: taxonomic analysis of zooplankton organisms, their distribution, species, as well as the dynamics of their qualitative and quantitative extracellular development, conducting research on the basis of a plan for their study, the consumption by fish carcasses as a nutrient object.

Purpose of the research:

- Zooplankton in Devkhana Lake of Bukhara province to determine species composition, biomass, quality and productivity of organisms, to analyze species composition and to identify dominant species;
- Familiarity with the methods of research in hydro biological;
- Evaluation of the seasonal variation in zooplankton quantity and biomass;
- Zooplankton to contribute to increasing the productivity of fish tadpole and fish by studying organisms;

Methods of the research: the methods of geological, hydrobiological, hydrochemistry, environmental, statistical analysis were used in the dissertation. In field conditions, methods of collecting, fixation, hydrobiology of zooplankton samples were used.

Scientific modernity of the study:

- The fact that the hyrobiology of Devkhana Lake was studied for the first time, the number of species of zooplankton species was cited for the first time, the biology and ecology of the dominant species was cited,
- The dynamics of the development of Zooplankton organisms in terms of quality and quantity, as well as seasonal absorption have been determined and the importance of they in the aquatic ecosystem has been studied;
- Zooplankton found to increase organisms developed, feeding fish tadpole increases their survival rate;

Master students: Xadjayeva Zarina Faxriddin qizi

Research teacher: assissent docter B.B.Toxirov

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Xadjayeva Zarina Faxriddin qizi

«Devxona ko‘li zooplanktonlarini aniqlash va baliqchilikda qo‘llash»

5A140103- Ixtiologiya va gidrobiologiya mutaxassisligi bo‘yicha magistrlik
ilmiy darajasini olishi uchun yozilgan dissertatsiyasiga yetkachi tashkilotning

Taqrizi

Dunyo miqyosida yil mobaynida iste‘mol qilinadigan baliq miqdori 16,6 kg ni tashkil qiladi. Oziq-ovqat xavfsizligini taminlashda baliq ovlash va akvako‘lturaning o‘rni katta. Baliq to‘la qimmatli, oqsilga boy ozuqa obekti hisoblanadi. 2004 yilda dunyo miqyosida 106 million tonna baliq ovlavgan. Baliq inson ratsionidagi protein miqdorining 20% ni baliq tashkil qiladi. Baliq etkazib beruvchi soha baliq ovlash korxonalaridir, lekin buning ulushi 2004 yilga kelib 57%ga qisqardi. Buning asosiy sababi quyidagi omillar: O‘ta baliq ovlash shu munosabat bilan ko‘pchilik baliq turlari kamayib ketdi. Bu esa tabiiy ko‘llarni qashshoqlashishiga olib keldi. Baliqchilik sohasi O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining rivojlanishini asosiy potentsiali hisoblanadi. Lekin oxirgi yillarda bu soha nihoyatda pasayib ketdi. Baliqchilikni rivojlantirishda Respublikada shu jumladan Buxoro viloyatida ham imkoniyatlar katta. Buxoro vohasida 110 ming gektar tabiiy suvlik mavjud bo‘lib, ushbu maydonda 17 ta MCHJ baliqchilik xo‘jaliklari tashkil qilingan. Baliq mahsuldorligi 1,0-1,5 kg/gani tashkil qiladi. Tibbiyot xodimlarning taklifiga ko‘ra O‘zbekistonda baliq iste‘mol qilish yil davomida 12 kg qilib belgilangan, bu esa sutkasiga 0,033 kgni tashkil qiladi. Respublika sog‘liqni saqlash vazirligining tavsiyasiga binoan, har bir inson organizmi sog‘lom rivojlanishi uchun yil davomida 12 kg baliq va baliq maxsuloti iste‘mol qilishi lozim. Baliq bilan aholini taminlash uchun esa yuqori darajada akvako‘ltura sohasini rivojlantirishda baliq va baliq maxsulotlarini etishtirish talab etiladi. Baliq bilan aholini taminlash uchun suv omborlari, ko‘llar, daryolar va suniy suv

havzalaridan foydalanish talab qilinadi. Buning uchun suvlarning tarkibini o'rganish hamda foydalanish darajasini meyorlashtirishni talab etadi. Suv ekosistemi tizimida (fitoplankton, zooplankton, zoobentos va yuksak suv o'simliklari) tadqiqotlar olib borish va suv ekosistemasi kechadigan mexanizmlarni o'rganish imkonini beradi. Suv ekosistemi komponentlarining mavjud bo'lishi baliq chavoqlari va voyaga etgan baliqlarning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonning asosiy baliqchilikka yo'naltirilgan ko'llarida baliq yetishtirish to'liq yo'lga qo'yilmagan. Ko'llarda uchraydigan gidrobiontlarning asosiy ozuqasi, gidrobiontlarni har tomonlama o'rganish baliq yetishtirishdagi ko'pgina qiyinchiliklarning yechimi bo'lishiga yordam beradi.

O'zbekistonda 200 dan ortiq ko'l bo'lib, ular 52 ming gektardan ortiq maydonni ishg'ol etadi. Mana shu ko'llarning ko'pchiligida kelajakda yana ham ko'proq baliq o'stirsa bo'ladi. Xadjayeva Zarining tadqiqot natijalarida ilmiy ahamiyati asosida Devxona ko'lining gidrobiologiyasi birinchi marta o'rganilganligi, dominant turlar biologiyasi va ekologiyasi keltirilganligi, zooplanktonlar ozuqa bazasi sifatida miqdor va sifat ko'rsatgichlari aniqlanganligi, mavsumiy rivojlanish dinamikasi va suksessiyasining ochib berilganligi bilan izohlangan.

Xadjayeva Zarining tadqiqot natijalarida amaliy jihatdan zooplankton organizmlardan baliqlarning tabiiy ozuqasi sifatida foydalanish yo'llarini baliqchilik xo'jaliklarida hovuzlardagi baliqlar mahsuldorligini ko'paytirishga hamda baliq chavoqlarini zooplanktonlar orqali oziqlantirish evaziga ularning yashovchanligini oshirishga xizmat qilishi bilan izohlangan.

Suv yashash muxiti sifatida zooplankton organizmlarning yil davomida uchrashidan foydalanib, ulardan genofond sifatida keng doirada foydalanib, hovuz baliqchilik xo'jaliklarida baliq lichinkalaridan foydalanish imkoniyati mavjud. Zooplankton tanasida protein ko'rsatgichi 40-60% mavjudligini hisobga olgan holda, baliqchilikda ekstensiv usulni qo'llab baliq chavoqlarini bug'doy uni bilan emas tabiiy ozuqa sifatida zooplanktondan foydalanish maqsadga muvofiq.

Dissertatsiyaning birinchi bobida ko'llar tipologiyasi keltirilgan bo'lib, Buxoro viloyati respublika miqyosida yakkayu - yagona sun'iy sug'orish sistemasiga

asoslangan viloyat hisoblanadi. Buxoro viloyatining asosiy suv manbasi bo'lib, I va II - navbatdagi Amu - Buxoro mashina (ABMK) kanallari va Amu - Qorako'l kanali sanaladi. Birinchi navbatdagi ABMK ning uzunligi 197 km, foydali ish ko'effitsenti $80 \text{ m}^3/\text{sek}$, ikkinchi navbatdagi ABMK ning uzunligi 245,8 km, foydali ish ko'effitsenti $112 \text{ m}^3/\text{sek}$, Amu – Korako'l kanalining uzunligi 55 km, foydali ish ko'effitsenti $48 \text{ m}^3/\text{sek}$. Har uchala kanalning foydali ish ko'effitsenti $240 \text{ m}^3/\text{sek}$ ni tashkil qiladi. Devxona ko'li Buxoro viloyati Qorovulbozor tumani hududida joylashgan bo'lib maydoni 1700 gektarni tashkil qiladi. Uning suv zahirasi 765 mln m^3 dan iborat. O'rtacha chuqurligi 15-17 m, maksimal chuqurligi 30-38 m. Suv olish manbasi Qarshi markaziy kollektori va Qorovulbozor markaziy kanali hisoblanadi. Ko'lning qirg'oqlaridan 5 metr chuqurlikkacha bo'lgan maydonlarida turli yuksak o'simliklar o'sadi. Shu davrga qadar mazkur o'simliklar ro'yxati tuzilib sistematik tahlili keltirilmagan. Natijada o'simlik turlari bo'yicha ayrim chalkashliklar uchray turadi. Chunki tabiiy suv havzalarida o'txo'r baliqlarning oziqlanishida bu juda muhim ahamiyatga ega.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobida tadqiqotning usuli va materiallari keltirilgan bo'lib, suvdagi erigan kislorod miqdorini, ko'ldagi zooplanktonlarning turlarini va miqdorini aniqlash usul va metodlari keltirigan. Bundan tashqari ko'ldagi mavsumiy o'zgarishni aniqlash usul va metodlarining qisqacha nazariy amaliy ko'rsatgichlari yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi tajribalar qismiga asoslangan bo'lib, Devxona ko'lidagi zooplanktonlarning turlari keltirilgan bo'lib, ko'lda uchraydigan dominant turlar tarkibi hamda, Devxona ko'lining fizik – kimyoviy tarkibi, suvning harorati, suvning muhiti (pH), suvning tiniqligi, suvdagi kislorodning miqdori kabi barcha ko'rsatgichlar keltirilgan. Zooplanktonlarning mavsumiy o'zgarishi haqidagi nazariy va amaliy ko'rsatgichlar keltirilgan.

Shuningdek, Devxona ko'lidagi aniqlangan turlardan fiziologik faol moddalarga boy bo'lgan turlarni baliqchilikda qo'llashga oid tavsiya va tushunchalar keltirilgan. Xulosa qilib aytganda, Xadjayeva Zarining bajargan magistrlik ishi yuqori saviyada bajarilgan bo'lib, ixtiologiya va gidrobiologiya fanida qo'llanilgan tadqiqot

usullarini yoritib berishga harakat qilgan va kelajakda bu o'rgangan bilimlarini yanada yuksaltirib borishiga, Devxona ko'lida ixtiologik va gidrobiologik tadqiqotlarni davom ettirishiga va bilimlar majmuini amaliy jihatdan qo'llay olishiga umid qilamiz.

Xadjayeva Zarina tomonidan bajarilgan magistrlik dissertatsiyasi oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalar hamda ilmiy ishda qilingan amaliy yangiliklar mavjud bo'lib, himoyaga tavsiya etilayotgan ilmiy ishi talablarga to'liq javob beradi. Ishni himoyaga tavsiya etamiz.

S.B.Bo'riyev

Buxoro davlat universiteti

Tabiiy fanlar fakol'teti

Biologiya kafedrası

Professori

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Xadjayeva Zarina Faxriddin qizi

«Devxona ko‘li zooplanktonlarini aniqlash va baliqchilikda qo‘llash»

5A140103- Ixtiologiya va gidrobiologiya mutaxassisligi bo‘yicha magistrlik
ilmiy darajasini olishi uchun yozilgan dissertatsiyasiga yetkachi tashkilotning

Taqrizi

Dunyo miqyosida yil mobaynida iste‘mol qilinadigan baliq miqdori 16,6 kg ni tashkil qiladi. Oziq-ovqat xavfsizligini taminlashda baliq ovlash va akvako‘lturaning o‘rni katta. Baliq to‘la qimmatli, oqsilga boy ozuqa obekti hisoblanadi. 2004 yilda dunyo miqyosida 106 million tonna baliq ovlavgan. Baliq inson ratsionidagi protein miqdorining 20% ni baliq tashkil qiladi. Baliq etkazib beruvchi soha baliq ovlash korxonalaridir, lekin buning ulushi 2004 yilga kelib 57%ga qisqardi. Buning asosiy sababi quyidagi omillar: O‘ta baliq ovlash shu munosabat bilan ko‘pchilik baliq turlari kamayib ketdi. Bu esa tabiiy ko‘llarni qashshoqlashishiga olib keldi. Baliqchilik sohasi O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining rivojlanishini asosiy potentsiali hisoblanadi. Lekin oxirgi yillarda bu soha nihoyatda pasayib ketdi. Baliqchilikni rivojlantirishda Respublikada shu jumladan Buxoro viloyatida ham imkoniyatlar katta. Buxoro vohasida 110 ming gektar tabiiy suvlik mavjud bo‘lib, ushbu maydonda 17 ta MCHJ baliqchilik xo‘jaliklari tashkil qilingan. Baliq mahsuldorligi 1,0-1,5 kg/gani tashkil qiladi. Tibbiyot xodimlarning taklifiga ko‘ra O‘zbekistonda baliq iste‘mol qilish yil davomida 12 kg qilib belgilangan, bu esa sutkasiga 0,033 kgni tashkil qiladi. Respublika sog‘liqni saqlash vazirligining tavsiyasiga binoan, har bir inson organizmi sog‘lom rivojlanishi uchun yil davomida 12 kg baliq va baliq maxsuloti iste‘mol qilishi lozim. Baliq bilan aholini taminlash uchun esa yuqori darajada akvako‘ltura sohasini rivojlantirishda baliq va baliq maxsulotlarini etishtirish talab etiladi. Baliq bilan aholini taminlash uchun suv omborlari, ko‘llar, daryolar va suniy suv

havzalaridan foydalanish talab qilinadi. Buning uchun suvlarning tarkibini o'rganish hamda foydalanish darajasini meyorlashtirishni talab etadi. Suv ekosistemi tizimida (fitoplankton, zooplankton, zoobentos va yuksak suv o'simliklari) tadqiqotlar olib borish va suv ekosistemasi kechadigan mexanizmlarni o'rganish imkonini beradi. Suv ekosistemi komponentlarining mavjud bo'lishi baliq chavoqlari va voyaga etgan baliqlarning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonning asosiy baliqchilikka yo'naltirilgan ko'llarida baliq yetishtirish to'liq yo'lga qo'yilmagan. Ko'llarda uchraydigan gidrobiontlarning asosiy ozuqasi, gidrobiontlarni har tomonlama o'rganish baliq yetishtirishdagi ko'pgina qiyinchiliklarning yechimi bo'lishiga yordam beradi.

O'zbekistonda 200 dan ortiq ko'l bo'lib, ular 52 ming gektardan ortiq maydonni ishg'ol etadi. Mana shu ko'llarning ko'pchiligida kelajakda yana ham ko'proq baliq o'stirsa bo'ladi. Xadjayeva Zarining tadqiqot natijalarida ilmiy axamiyati asosida Devxona ko'lining gidrobiologiyasi birinchi marta o'rganilganligi, dominant turlar biologiyasi va ekologiyasi keltirilganligi, zooplanktonlar ozuqa bazasi sifatida miqdor va sifat ko'rsatgichlari aniqlanganligi, mavsumiy rivojlanish dinamikasi va suksessiyasining ochib berilganligi bilan izohlangan.

Xadjayeva Zarining tadqiqot natijalarida amaliy jihatdan zooplankton organizmlardan baliqlarning tabiiy ozuqasi sifatida foydalanish yo'llarini baliqchilik xo'jaliklarida hovuzlardagi baliqlar mahsuldorligini ko'paytirishga hamda baliq chavoqlarini zooplanktonlar orqali oziqlantirish evaziga ularning yashovchanligini oshirishga xizmat qilishi bilan izohlangan.

Suv yashash muxiti sifatida zooplankton organizmlarning yil davomida uchrashidan foydalanib, ulardan genofond sifatida keng doirada foydalanib, hovuz baliqchilik xo'jaliklarida baliq lichinkalaridan foydalanish imkoniyati mavjud. Zooplankton tanasida protein ko'rsatgichi 40-60% mavjudligini hisobga olgan holda, baliqchilikda ekstensiv usulni qo'llab baliq chavoqlarini bug'doy uni bilan emas tabiiy ozuqa sifatida zooplanktondan foydalanish maqsadga muvofiq.

Dissertatsiyaning birinchi bobida ko'llar tipologiyasi keltirilgan bo'lib, Buxoro viloyati respublika miqyosida yakkayu - yagona sun'iy sug'orish sistemasiga

asoslangan viloyat hisoblanadi. Buxoro viloyatining asosiy suv manbasi bo'lib, I va II - navbatdagi Amu - Buxoro mashina (ABMK) kanallari va Amu - Qorako'l kanali sanaladi. Birinchi navbatdagi ABMK ning uzunligi 197 km, foydali ish koeffitsienti $80 \text{ m}^3/\text{sek}$, ikkinchi navbatdagi ABMK ning uzunligi 245,8 km, foydali ish koeffitsienti $112 \text{ m}^3/\text{sek}$, Amu – Korako'l kanalining uzunligi 55 km, foydali ish koeffitsienti $48 \text{ m}^3/\text{sek}$. Har uchala kanalning foydali ish koeffitsienti $240 \text{ m}^3/\text{sek}$ ni tashkil qiladi. Devxona ko'li Buxoro viloyati Qorovulbozor tumani hududida joylashgan bo'lib maydoni 1700 gektarni tashkil qiladi. Uning suv zahirasi 765 mln m^3 dan iborat. O'rtacha chuqurligi 15-17 m, maksimal chuqurligi 30-38 m. Suv olish manbasi Qarshi markaziy kollektori va Qorovulbozor markaziy kanali hisoblanadi. Ko'lning qirg'oqlaridan 5 metr chuqurlikkacha bo'lgan maydonlarida turli yuksak o'simliklar o'sadi. Shu davrga qadar mazkur o'simliklar ro'yxati tuzilib sistematik tahlili keltirilmagan. Natijada o'simlik turlari bo'yicha ayrim chalkashliklar uchray turadi. Chunki tabiiy suv havzalarida o'txo'r baliqlarning oziqlanishida bu juda muhim ahamiyatga ega.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobida tadqiqotning usuli va materiallari keltirilgan bo'lib, suvdagi erigan kislorod miqdorini, ko'ldagi zooplanktonlarning turlarini va miqdorini aniqlash usul va metodlari keltirigan. Bundan tashqari ko'ldagi mavsumiy o'zgarishni aniqlash usul va metodlarining qisqacha nazariy amaliy ko'rsatgichlari yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi tajribalar qismiga asoslangan bo'lib, Devxona ko'lidagi zooplanktonlarning turlari keltirilgan bo'lib, ko'lda uchraydigan dominant turlar tarkibi hamda, Devxona ko'lining fizik – kimyoviy tarkibi, suvning harorati, suvning muhiti (pH), suvning tiniqligi, suvdagi kislorodning miqdori kabi barcha ko'rsatgichlar keltirilgan. Zooplanktonlarning mavsumiy o'zgarishi haqidagi nazariy va amaliy ko'rsatgichlar keltirilgan.

Shuningdek, Devxona ko'lidagi aniqlangan turlardan fiziologik faol moddalarga boy bo'lgan turlarni baliqchilikda qo'llashga oid tavsiya va tushunchalar keltirilgan. Xulosa qilib aytganda, Xadjayeva Zarining bajargan magistrlik ishi yuqori saviyada bajarilgan bo'lib, ixtiologiya va gidrobiologiya fanida qo'llanilgan tadqiqot

usullarini yoritib berishga harakat qilgan va kelajakda bu o'rgangan bilimlarini yanada yuksaltirib borishiga, Devxona ko'lida ixtiologik va gidrobiologik tadqiqotlarni davom ettirishiga va bilimlar majmuini amaliy jihatdan qo'llay olishiga umid qilamiz.

Xadjayeva Zarina tomonidan bajarilgan magistrlik dissertatsiyasi oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalar hamda ilmiy ishda qilingan amaliy yangiliklar mavjud bo'lib, himoyaga tavsiya etilayotgan ilmiy ishi talablarga to'liq javob beradi. Ishni himoyaga tavsiya etamiz.

S.B.Bo'riyev

Buxoro davlat universiteti

Tabiiy fanlar fakol'teti

Biologiya kafedrası

Professori

MUNDARIJA:

Kirish.

Adabiyotlar sharhi.

I-bob. BUXORO VILOYATI DEVSXONA KO'LINING O'RGANILISHI

1.1.Ko'llar tipologiyasi.

II-bob.TADQIQOT USULI VA MATERIALLARI.

2.1. Suvdagi erigan kislorod miqdorini aniqlash.

2.2.Ko'ldagi zooplanktonlarning turlarini va miqdorini aniqlash.

III. TAJRIBALAR QISMI.

3.1. Devsxona ko'lining fizik – kimyoviy tarkibi:

- suvning harorati
- suvning muhiti (pH)
- suvning tiniqligi
- suvdagi kislorodning miqdori

3.2. Zooplanktonlarning mavsumiy o'zgarishi.

3.3. Aniqlangan turlardan fiziologik faol moddalarga boy bo'lgan turlarni baliqchilikda qo'llash.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi. Dunyo miqyosida yil mobaynida iste'mol qilinadigan baliq miqdori 16,6 kg ni tashkil qiladi. Oziq-ovqat xavfsizligini taminlashda baliq ovlash va akvako'lturaning o'rni katta. Baliq to'la qimmatli, oqsilga boy ozuqa obekti hisoblanadi. 2004 yilda dunyo miqyosida 106 million tonna baliq ovlavgan. Baliq inson ratsionidagi protein miqdorining 20% ni baliq tashkil qiladi. Baliq etkazib beruvchi soha baliq ovlash korxonalaridir, lekin buning ulushi 2004 yilga kelib 57%ga qisqardi. Buning asosiy sababi quyidagi omillar: O'ta baliq ovlash shu munosabat bilan ko'pchilik baliq turlari kamayib ketdi. Bu esa tabiiy ko'llarni qashshoqlashishiga olib keldi. Baliqchilik sohasi O'zbekiston qishloq xo'jaligining rivojlanishini asosiy potensiali hisoblanadi. Lekin oxirgi yillarda bu soha nihoyatda pasayib ketdi. Baliqchilikni rivojlantirishda Respublikada shu jumladan Buxoro viloyatida ham imkoniyatlar katta. Buxoro vohasida 110 ming gektar tabiiy suvlik mavjud bo'lib, ushbu maydonda 17 ta MCHJ baliqchilik xo'jaliklari tashkil qilingan. Baliq mahsuldorligi 1,0-1,5 kg/gani tashkil qiladi. Tibbiyot xodimlarning taklifiga ko'ra O'zbekistonda baliq istemol qilish yil dovomida 12 kg qilib belgilangan, bu esa sutkasiga 0,033 kgni tashkil qiladi. Bu masala O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning kitoblarida o'z tasdig'ini topgan. [1] Asarda ichki bozorni o'zimizda etishtirilgan ekologik toza oziq – ovqat maxsulotlarga talabni qondirish, barqaror iqtisodiy o'sishni taminlash, fermerchilik harakatini rivojlantirish va uni qo'llab quvvatlash zarurligi ko'rsatilgan. Shuning uchun ham hozirgi kunda baliq mahsuldorligini oshirish yo'lida bir qancha ishlar olib borilmoqda. 2007 yil iyul oyida O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi vazirligi BMT tashkiloti huzuridagi Oziq – ovqat va qishloq xo'jaligi masalasi (FAO) bo'yicha shug'ullanadigan markazga O'zbekistonda baliq ovlash va akvako'lturani mustahkam rivojlantirishda hamkorlik qilish bo'yicha murojat qiladi. Shu munosabat bilan, FAO quyidagi loyixa programmasi TSR|UZB|3103(D) yani shu programma orqali "O'zbekistonda baliq ovlash va hatlikda ish ko'rish rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishni qo'llab quvvatlash" loyxasi ishlab chiqildi. Ushbu loyxa O'zFA suv muammolari o'simlik va hayvonot olami genofondi institutlari tomonidan amalga oshiriladi. Respublika

sogʻliqni saqlash vazirligining tavsiyasiga binoan, har bir inson organizmi sogʻlom rivojlanishi uchun yil davomida 12 kg baliq va baliq maxsuloti isteʼmol qilishi lozim. Baliq bilan aholini taʼminlash uchun esa yuqori darajada akvakoʻltura kabi sohani rivojlantirishda baliq va baliq mahsulotlarini yetishtirish talab etiladi. Baliq bilan aholini taʼminlash uchun suv omborlari, koʻllar, daryolar va suniy suv havzalaridan foydalanish talab qilinadi. Buning uchun suvlarning tarkibini oʻrganish hamda foydalanish darajasini meyorlashtirishni talab etadi. Suv ekosistemi tizimida (fitoplankton, zooplankton, zoobentos va yuksak suv oʻsimliklari) tadqiqotlar olib borish va suv ekosistemi kchadigan mexanizmlarni oʻrganish imkonini beradi. Suv ekosistemi komponentlarining mavjud boʻlishi baliq chavoqlari va voyaga etgan baliqlarning rivojlanishiga katta tasir koʻrsatadi. Oʻzbekistonning asosiy baliqchilikka yoʻnaltirilgan koʻllarida baliq yetishtirish toʻliq yoʻlga qoʻyilmagan. Koʻllarda uchraydigan gidrobiontlarning asosiy ozuqasi, gidrobiontlarni har tomonlama oʻrganish baliq etishtirishdagi koʻpgina qiyinchiliklarning yechimi boʻlishiga yordam beradi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF 4947-son “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmon va 2017 yil 1 maydagi PK-2939-son “Baliqchilik tarmogʻini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 13 sentabrdagi 719-son “Baliqchilik tarmogʻini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi va 2017 yil 18 oktabrdagi 845-son “CHorvachilik va baliqchilik tarmoqlarining ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 iyuldagi PQ-3823-son «Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi qarorlari, 2018 yil 6 apreldagi PQ-3657-son «Baliqchilik tarmogʻini jadal rivojlantirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida»gi qarori, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi. Oʻzbekiston xududida 600 dan ziyodroq daryolar bor. Bu daryolarning qariyb

hammasi Tojikiston va Qirg'izistondagi baland tog'lardan boshlanadi. Bulardan eng yirigi hisoblangan Amudaryo bilan Sirdaryo [Orol dengiziga quyiladi](#), qolganlari esa mana shu ikki ulkan daryoning irmoqlari hisoblanadi. Shunisi ham borki, mazkur irmoq suvlarining ko'pchiligi Amudaryo bilan Sirdaryoga etib kelmay, ekinzorlarni sug'orish uchun sarf bo'ladi. Bundan tashqari, O'zbekistonda 200 dan ortiq ko'l bo'lib, ular 52 ming gektardan ortiq maydonni ishg'ol etadi. Mana shu ko'llarning ko'pchiligida kelajakda yana ham ko'proq baliq o'stirsa bo'ladi.

Tadqiqot ob'ekti: Buxoro viloyati Devxona ko'li plankton organizmlari (kolovratkalar, kopepodlar, kladotseralar) hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti: Zooplankton organizmlarning taksonomik taxlili, tarqalishi, turlari, hamda ularning sifat va miqdor jixatidan rivojlanish dinamikasi, ularni o'rganish uchun reja asosida tadqiqot olib borish, baliq chavoqlari tomonidan ozuqa ob'ekti sifatida istemol qilinishi.

Tadqiqotning maqsadi:

- Buxoro viloyati Devxona ko'lidagi zooplankton organizmlarning tur tarkibini, biomassasini, sifat va mahsuldorligini aniqlash, tur tarkibini taxlil qilish va dominant turlarni aniqlash;
- Hidrobiologik ilmiy-tadqiqot usullari bilan tanishish ;
- Zooplankton miqdori va biomassasining mavsumiy o'zgarishini baxolash;
- Zooplankton organizmlarni o'rganish orqali baliq chavoqlarining va baliqlarning mahsuldorligini oshirishga hissa qo'shish;

Tadqiqot vazifalari:

- Hidrobiologik tadqiqot usullari bilan tanishgan holda Devxona ko'lidan material yig'ish;
- Suv gidrobiontlarning yashash muxiti sifatida miqdor va sifat namunalarini yig'ish, ularni fiksatsiya qilish, laboratoriya sharoitida kameral qayta ishlash, total preparat tayyorlash;
- Zooplankton turlarni aniqlash;
- Zooplankton organizmlarning sifat va miqdor jixatidan mavsumiy rivojlanish dimakasini aniqlash;

- Ko'ldan tadqiqot ob'ekti sifatida foydalanish;
- Zooplankton organizmlardan baliqlarning tabiiy ozuqasi sifatida foydalanish va suv havzalari mahsuldorligini oshirish chora -tadbirlarini ishlab chiqish;

Tadqiqot usullari: Dissertatsiyada gidrologik, gidrobiologik, gidrokimyo, ekologik, statistik tahlil usullaridan foydalanilgan. Dala sharoitida zooplankton namunalarini yig'ish, fiksatsiyalash, gidrobiologiya usullaridan foydalanildi (A.I. Kisilev 1968). Laboratoriya usulida kameral qayta ishlash, total preparat tayyorlash usuli (Mirabdullaev 2012, Muhammadiev 1989, Kitikova 1970). Bogorov kamerasida sanash, biomassani aniqlashda adabiyotlardan foydalanildi (S.D. Niyozov 2013). Ishda gidrobiologik usullardan (Jadin 1950, Kiselev 1968, Muhammadiev 1967, Vinberg 1968), hamda material yig'ishda (J.P. Erxard, J. Sejen 1984, D. Trante 1968,) usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati asosida Devxona ko'lining gidrobiologiyasi birinchi marta o'rganilganligi, dominant turlar biologiyasi va ekologiyasi keltirilganligi, zooplanktonlar ozuqa bazasi sifatida miqdor va sifat ko'rsatgichlari aniqlanganligi, mavsumiy rivojlanish dinamikasi va suksessiyasining ochib berilganligi bilan izoxlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati zooplankton organizmlardan baliqlarning tabiiy ozuqasi sifatida foydalanish yo'llarini baliqchilik xo'jaliklarida hovuzlardagi baliqlar mahsuldorligini ko'paytirishga hamda baliq chavoqlarini zooplanktonlar orqali oziqlantirish evaziga ularning yashovchanligini oshirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- Devxona ko'lining gidrobiologiyasi birinchi marta o'rganilganligi, zooplankton turlarining birinchi marta turlar soni keltirilganligi, dominant turlar biologiyasi va ekologiyasi keltirilganligi,

- Zooplankton organizmlarning sifat va miqdor jixatidan rivojlanish dinamikasi hamda mavsumiy suksessiyasi aniqlangan va ularning suv ekotizimidagi ahamiyati o'rganilgan;
- Zooplankton organizmlarni tabiiy holda ko'paytirib, baliq chavoqlarini oziqlantirish evaziga ularning yashovchanligini oshirishi aniqlangan;

Tadqiqotning qo'llanish sohasi: Oliy o'quv yurtlari bakalavr yo'nalishi, magistrlik mutaxassisligi talabalari va baliqchilik MCHJ xo'jaliklari, baliqchilik fermer xo'jaliklari uchun;

Iqtisodiy ahamiyati: Suv yashash muxiti sifatida zooplankton organizmlarning yil davomida uchrashidan foydalanib, ulardan genofond sifatida keng doirada foydalanib, hovuz baliqchilik xo'jaliklarida baliq lichinkalaridan foydalanish imkoniyati mavjud. Zooplankton tanasida protein ko'rsatgichi 40-60% mavjudligini hisobga olgan holda, baliqchilikda ekstensiv usulni qo'llab baliq chavoqlarini bug'doy uni bilan emas tabiiy ozuqa sifatida zooplanktondan foydalanish maqsadga muvofiq.

Dissertatsiya tuzilmasi va hajmi: Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ilmiy ish hajmi ____ betni tashkil etadi. Ish matnida ____jadval va ____rasm mavjud.

Olingan natijalar:

Adabiyotlar sharhi

Respublikadagi suv fondi: daryolar, ko'llar, suv omborlari, boshqa yer usti suv havzalari, kanal va hovuzlarning suvlaridan hamda yer osti suvlari va muzliklardan iborat. O'zbekistonda muhim muammolardan biri ekotizmlar monitoringi hisoblanadi. Suv ekotizmining muhim komponentlaridan biri eshkakoyoqli qisqichbaqasimonlar yani kopepodlardir. Ularni o'rganish va tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Kopepodlar quyidagi biotoplarni makon qilib olishgan: bentos, plankton, perifiton, neyston, grunt suvlari. Ushbu biotoplarda ular ko'pchilikni tashkil etib, ekotizmning boshqa elementlari bilan aloqadorlikda kun kechiradi. Dunyoda turli tipdagi suv havzalari zooplankton organizmlar bioxilma-xilligini aniqlash va ularni qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirishga jalb etish bo'yicha, qator, jumladan, quyidagi ustivor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: turli geografik hududlarga mansub suv havzalarida zooplankton organizmlar shakllanishi yo'llarini asoslash, mahalliy zooplankton organizmlar asosida ishlab chiqariladigan me'yorlashgan ozuqa qo'shimchalari assortimentini kengaytirish, suv omborlarida zooplankton organizmlar biomassasi shakllanishini boshqarishning innovatsiya yo'llarini ishlab chiqish: Markaziy Osiyo suv xavzalaridagi zooplankton organizmlarning toksonomik o'zgarishlari kuzatilib, mavjud turlarini saqlab qolish va ko'paytirish chora-tadbirlari to'g'risida tavsiyalar berish.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Dunyoning bir qator suv omborlari zooplankton organizmlari faunasi va sistematikasi ko'plab xorijlik olimlar, jumladan, Henri H.J. et. all. (1994); Robert G.Radke and Uwe Kahl (2002); G. Dams (2016); Anna M.A. da Silva et. all. (2009); J.A. Benzie (2006); J.M. Boberts (2009); CH. Farwell (2014); Sinjae You (2015); M. Povlov (2016); A.E. Fridereki (2016) kabilar tomonidan o'rganilgan. Rossiya davlatida Toms davlat universiteti dotsenti Kuxarskaya Elena Vladimirovna "Zooplankton basseyna reki chulym"(2011y). MDH mamlakatlarida zooplankton organizmlarining asosiy guruhini tashkil etuvchi qisqichbaqasimonlar va kolovratkalar sistematikasi, ularning tarqalishi, mahsuldorligi, ekologiyasi hamda suv omborlari gidrologiyasi va gidroximiyasi

bo'yicha tadqiqotlar A.V. Knylov va boshq., (2009); E.V. Presnova va boshq., (2010), V.R. Alekseeva (1995); N.M. Korovchinskiy (2004); N.V. Kartasheva (2006); YU.F. Gromova va A.B. Primak (2015); E.P. Romanova (2009); A. Xaitov (2011); E.G. Krupa (2010) ishlarida o'z aksini topgan.

O'zbekistonda turli tipdagi ekotizimlarda zooplankton organizmlarning taksonomiyasi, tarqalishi, ekologik xususiyatlari, ulardan suv havzalari unumdorligini oshirishda foydalanish bo'yicha gidrobiologik tadqiqotlar A.M. Muhamediev (1967, 1986), E.A. Toshpo'latov (1975), I.M. Mirabdullaev (1990, 1992), A.R. Kuzmetov, H.X. Abdinazarov (2018) tomonidan amalga oshirilgan. Farg'ona vodiysi suv havzalarining gidrobiologik tavsifi haqidagi batafsil ma'lumotlar A. M. Muzafarov (1958, 1965), A. M. Muxamediev (1956, 1964, 1967) va boshqa gidrobiologlarning ishlarida keltirilgan bo'lib, unda regiondagi suv havzalarining fizik-kimyoviy rejimi hamda ushbu suv havzalarida baliqchilikni rivojlantirish uchun ularning ozuqa resurslarining holati haqida ma'lumotlar keltirilgan.

A.M. Muxamediev, A.A. Negmatov va boshqalar tomonidan Sariqamish ko'lining gidrobiologik rejimi o'rganilgan bo'lib, ko'ldajami 141 tur plankton suv o'tlari va 78 tur zooplankton aniqlangan. SHularning 43 tasi Rotiferalar, 30 tasi Cladocera, 5 ta turi Capepoda larga mansub ekanligi ko'rsatilgan. Miqdor jixatidan Cladocera lar mutlaq ustunlikka ega bo'lib, biomassaning 93% ni tashkil etishi aniqlangan. SHuningdek, I.I. Ibragimov tomonidan Farg'ona vodiysi istirixat bog'larining hovuzlaridagi zooplanktoni ham o'rganilgan.

L.I. Afanaseva O'zbekistonning asosiy suv omborlaridagi zooplankton organizmlar bo'yicha malumotlarni jamlab, mavsumiy komplekslarini hamda dominantlarini ajratadi. O'zbekistonning tabiiy shakllangan ko'llari zooplankton organizmlarini o'rganish bo'yicha shunga o'xshash tadqiqotlar yaqin yillarda E.N. Ginatullina (2009) tomonidan o'tkazilgan. Biroq yuqoridagi tadqiqot ishlari O'zbekiston suv omborlari zooplankton organizmlari faunasi, ularning tarqalish xususiyatlari, ekologiyasi va zooplankton organizmlardan amaliy foydalanish bo'yicha etarli ma'lumotlarni bera olmaydi. Keyingi vaqtlardagi tadqiqotlardan malum bo'ldiki, bazi yirik sikloplar chivin lichinkalarini istemol qilib, ularning populyasiyasini

(Marten et al.,1994) nazorat qilib turadi. Keyingi o'n yilliklarda bazi tropik davlatda, asosan Vetnamda (Kay et all., 2002) qon so'ruvchi chivinlarga qarshi kurashda sikloplarning Mesosusiors urug'idan keng miqiyosda foydalanish natijasida Denge [Dengue] isitma kasalligini kamayishga erishildi. O'zbekistonda uchraydigan sikloplarning kushandalik faolligini o'rganishganda, ularning chivin lichinkalarining dastlabki rivojlanish bosqichlarini istemol qilishlari aniqlandi. (Mustafaeva va bosh., 2007). O'zbekistonda sikloplarning to'liq o'rganilmaganligi Markaziy Osiyo mintaqasida ularning taksonomiyasi qayta ko'rib chiqish vaqtida yaqqol ko'zga tashlandi. Siklop turlari to'la aniqlab bo'lgandan keyingina ularni bioindikatsiyada, parazitologiyada va suv ekotizimida olib boriladigan tadqiqotlarda qo'llash mumkin. O'zbekistonda sikloplarning sistematikasini va morfologiyasini o'rganish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilgan bo'lsa ham, ularning tarqalishini, ekologiyasi to'g'risida to'liq tasavvurga ega emasmiz (Mirabdullaev ,1996; Mirabdullaev, Kuzmetov, 1997; Mirabdullaev, Stuge,1998;Turemuratova, 1999;v.b.). Qoraqalpog'istonda (Turemuratova,1999) sikloplarni o'rganish bo'yicha ancha ishlar qilingan. A.M. Muxamedievning Farg'ona vodiysida uchraydigan sikloplar haqidagi monografiyasi ancha eskirib qolgan. MDH mamlakatlarida zooplankton organizmlarning morfo-ekologik xususiyatlari va mavsumiy suksessiyasini aniqlashga oid tadqiqotlar

B.R. Alekseev (1995), N.M. Karovchinskiy (2004), N.V. Kartashaeva (2006) tadqiqotlarida yoritilgan. O'zbekiston gidrobiolgik tadqiqotlar yo'nalishida mamlakatimiz olimlari A.M. Muxamediev (1967, 1986), E.A. Toshpo'latov (1975), I.M. Mirabdullaev (1990, 1992), A.R.Kuzmetovlar (1999) tomonidan zooplankton organizmlarni o'rganish buyicha turli izlanishlar olib borganlar.

AM.Muxamediev tomonidan tuban qisqichbaqasimonlarning zoogeografik tarqalishi va trofik genezisi masalalari ham ishlab chiqilgan. 73, 3 8b

E.A. Toshpo'latov Farg'ona vodiysining g'arbiy qismi suv havzalari gidrobiologiyasini batafsil o'rganib chiqqan. Muallif Qaznoq ko'li, baliq boqiladigan hovuzlar va sholipoyalarning zooplanktonini turlar tarkibi, miqdoriy ko'rsatgichlari va keng tarqalgan turlarining tarqalish qonuniyatlarini izohlab bergan. E.A.

Toshpo‘latovning ko‘rsatishicha, Qaznoq ko‘lida 80 ta plankton organizmlar topilib, ularning 28 tasi Rotifera lar, 33 tasi Cladocera lar va 19 tasi Capepoda lardan tashkil topgan. 94 – 140- 141b Zooplanktonning mavsumiy xilma – xilligi yoz oylariga to‘g‘ri kelishi qayd etilgan. “Uray” davlat baliqchilik hovuzlarida 63 ta organizm aniqlangan bo‘lib,

21 tasi Rotiferalar, 28 tasi Cladocera, 14 ta turi Capepoda larga mansub ekanligi kuzatilgan. 93 138b. SHoli poyalarida esa 64 ta zooplankton aniqlanib, ularning 18 tasi Rotiferalar, 31 tasi Cladocera, 15 ta turi Capepoda larga to‘g‘ri kelganligi ko‘rsatilgan. 146 24b. Keng tarqalgan turlardan quyidagilar kiritilgan: Lecane lena, Euchlanis dilatata, Brachionus quadridentatus, Brachionus plicatilis, Testudinella patina, Diaphanasoma brachium, Moina restiostiris, Moina weberi, Ceriodaphnia cornuta, Alona cambouei, Acanthodiaptomus denticornus, Phyllodiaptomus blansi, Cyclops sternuus, Cyclops vicinus, Microcyclops varicans, Mesocyclops leuckarti, Mesocyclops crassus. Aynan shu suvhavzalarining mikrosuvo‘tlari va zoobentosi to‘g‘risida malumotlar keltiradi. 95, 114 115b Markus Pahlow va A.E. Friederike Germaniya suv havzalarida tadqiqot olib borib, suv havzalarda zooplankton organizmlarni mavsumiy dinamikasini o‘rgangan. Ular sonining kamayib borish sabablarini o‘rganib, zooplankton organizmlar orasida farq va tafovutlarni aniqlagan. Ozuqalarning kamligi sababli ularning rivojlanishiga tasir etgan. SHu sababli ularning soni kamayib borgan. Buning oldini olish uchun suv havzalarida zooplankton ozuqasi bo‘lgan fitoplankton organizmlarni ko‘paytirish lozimligini takidlagan. 123, 169 178b Mustafaeva Z.A. va A.R. Kuzmetovlar miqdor jixatdan eshkakoyokli qisqichbaqasimonlar 238-299 ming dona/m³, biomassasi esa 4,982-6,4 g/m³ dan iborat bo‘lgan. Jumladan, kladotseralar miqdori 11,6-90 ming dona/m³, biomassasi esa 0,441-0,914 g/m³, Kolovratkalarining miqdori esa 48,33 ming dona/m³, biomassasi 0,0145 g/m³ ni tashkil etgan. Bundan tashqari qisqichbaqasimonlar va Kolovratkalardan 27 turini qayd qilingan. 70, 236 240b John Mirray Boberts AQSH laboratoriya sharoitida tinch va oqar suvda yashovchi zooplankton organizmlardan Capepod larning 40 turi ustida tajriba olib borgan. Bu suv havzalarini solishtirish natijasida zooplankton organizmlar miqdori ular

oziqlanadigan ozuqa bazasiga bog'liqligini aniqlab, oqar suvlarda ozuqa bazasi yani fitoplanton organizmlar bog'liqligini aniqlagan. SHu bilan birga , *Lophelia pertusa* sifat, miqdor va biomassasi izohlangan. 115, 39 40b A.R. Kuzmetov tomonidan Andijon baliqchilik xo'jaliklari zooplanktoni o'rganilib, ularning sifat ko'rsatgichlari va miqdor rivojlanish qonuniyatlari tahlil etilgan. Andijon baliqchilik xo'jaliklarining suv havzalaridan 54 tur plankton hayvonlar aniqlanib, ularning 27 tasi Rotifera lar, 12 tasi Cladocera lar va 15 tasi Capepoda qisqichbaqasimonlariga mansub ekanligi ko'rsatib o'tilgan. 141, 136B

A.R. Kuzmetov va boshqalar O'zbekiston suv omborlari Kattaqo'rg'on, Karkidon, Tuyabo'g'iz va Sho'rko'l suv omborlarida gidrobiologik tadqiqotlar olib borilgan.

Sho'rko'l ko'lining zooplankton organizmlarini A.R. Kuzmetov va A.M. Mirabdullaevlar tomonidan o'rganilgan. Bunga ko'ra zooplankton organizmlar ko'lining qirg'oq hududi, o'rtaroq qismi va suv chiqish joylaridagi rivojlanishi kuzatilgan. Zooplankton organizmlarning 9 ta turi aniqlangan. Mavsumda asosan, eshkakyoqli va shoxdormo'ylovli qisqichbaqasimonlar rivojlanganligini qayd qilingan. A.R. Kuzmetov va A.D. Saparov "Damchi" masuliyati cheklangan jamiyat baliqchilik havzalarida zooplankton organizmlar fito – bakterioplankton va detrit bilan oziqlanib, organik moddalarning hosil bo'lishida asosiy omil ekanligini, shu bilan birga "Damchi" baliqchilik xo'jaligida 9 tur Rotiferalar,

8 tur Cladocera, 7 turi Capepoda turlari keltirilgan. A.R. Kuzmetov va boshqalar Oqsoqota daryosi hududida joylashgan daryolar, buloqlar va vaqtinchalik ko'llarni makon qilib olgan hasharotlar va ularning lichinkalari, plankton hayvonlar va suv o'simliklari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Mualliflar

Capepoda turkumiga siklop vaqtinchalik ko'llarda Rotaria, kolovratkalaridan *Branchonius rubens* barcha suv havzalarida uchrashi, *Daphnia* va *Moina* larni ham rivojlanishini ko'rsatgan. Qozog'iston Respublikasi suv havzalarida E.G. Krupa va T.S. Stugelarning tadqiqotlari davomida mikro qisqichbaqasimonlarning 18 turi aniqlangan. Ularning 9 turi Cladocera turkumi (*Diaphanosoma lacustris*,

D. mongolianum, *Daphnia cucullata*, *D. galeata*, *Daphnia* sp. *Ceriodaphnia cornuta*, *Chydorus sphaericus*, *Alona rectangular*, *Bosmina longirostris*), 2 tur Clanoidia

turkumi vakillari (*Acanthodiaptomus denticornis*, *Diaptomus* sp.), 6 tur Cyclopoida vakillari (*Eucyclops serrulatus*, *Cyclops vicinus*, *Acanthocyclops* sp., *Mesocyclops leuckarti*, *Thermocyclops crassus*, *Ergasilus sieboldi*) va bitta turini Harpacticoida vakillari tashkil qilgan. 57, 66 68B.

